

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi
Statistika agentlining
2023- yil 24- fevraldagi
4- son qaroriga
ILOVA

**Sanoat korxonalari tomonidan xarid qilingan moddiy resurslar
narxlari indeksini hisoblash bo'yicha
uslubiy nizom**

Sanoat korxonalari tomonidan xarid qilingan moddiy resurslar narxlari indeksini hisoblash bo'yicha Uslubiy nizom (keyingi o'rinlarda – Uslubiy nizom deb yuritiladi) sanoat korxonalari va tashkilotlari tomonidan ishlab chiqarish maqsadlarida xarid qilingan moddiy resurslarning o'rtacha narxlari statistika kuzatuvlarini tashkil etishni yanada takomillashtirish va sifatini oshirish maqsadida ishlab chiqilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi hududida sanoat korxonalari tomonidan xarid qilingan moddiy resurslar narxlari indekslarini aniqlash tartibini belgilaydi.

Ushbu uslubiy nizomni ishlab chiqishda “Ishlab chiqaruvchilar narxlari indeksi: amaliyot va nazariya” (YeIQ, BMT, XVJ, XMT, IXRT, Yevrostat, Butunjahon banki, 2004- yil) konseptual asoslaridan foydalanilgan.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Xarid qilingan moddiy resurslar narxlari darajasi va dinamikasi kuzatuvining maqsadi korxonalar va tashkilotlar tomonidan texnologik jarayonlar uchun xarid qilingan ishlab chiqarish va texnik jihatdan foydalanishga mo'ljallangan mahsulotlarning o'rtacha narxlari to'g'risidagi ma'lumotlarni olishni tashkil etishdan iborat.

2. Korxona va tashkilotlardan olingan o'rtacha narxlar to'g'risidagi ma'lumotlar asosida xarid qilingan, moddiy resurslarning asosiy guruhlariga bo'yicha o'rtacha narxlar indeksi, shuningdek, sanoat faoliyati turlari kesimidagi xarid narxlari indeksi hisob-kitob qilinadi.

3. Ushbu uslubiy nizomda quyidagi asosiy tushuncha va ta'riflardan foydalanilgan:

narx – moddiy resurs miqdoriy birligi uchun ma'lum bir valyuta (milliy yoki xalqaro) pul birligidagi tovar qiymatining ifodasi;

o‘rtacha narx – ma’lum vaqt yoki makondagi bir turga mansub tovarlar guruhidagi narxlarning o‘zgarishini umumlashtirish xarakteridagi ko‘rsatkich;

tayanch yil – salmoq vaznlarni shakllantirish va sanoat korxonalari tomonidan xarid qilingan moddiy resurslar narxlarining (keyingi o‘rinlarda – xarid narxlari) tanlanma statistika kuzatuvlarini tashkil etish uchun tayanch korxonalar hamda vakil-resurslarni tanlashda qiymat shaklidagi xarid qilingan moddiy-texnik resurslar umumiy xarajatlari ma’lumotlaridan foydalanilgan yil;

tayanch korxona (tashkilot) – narxlarni ro‘yxatga olish uchun representativ tanlab olingan va kuzatuv tanlanmasiga kiritilgan obyekt;

salmoq vazn – tayanch yil uchun har bir agregatsiya bosqichlarida xarid qilingan moddiy resurslarning harajatlar qiymati hajmidagi ulushi. Bu har bir elementning umumiy majmuadagi muhimlik darajasini aks ettiruvchi ko‘rsatkichdir;

indeksning tayanch davri – narx indeksi qiymatlari 100 %ga tenglashtirilib, choraklik narx indekslarini o‘zaro bog‘lash amalga oshiriladigan davr;

individual narx indeksi – aniq turdagi resurs narxlari darajasi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkich;

jamlangan (umumiy) narx indeksi – alohida kichik guruhlar, guruhlar yoki o‘rganilayotgan jarayonlar bo‘yicha umumiy hisobda narxlar o‘zgarishi darajasini tavsiflovchi va individual narx indeksleri asosida shakllanuvchi nisbiy ko‘rsatkich;

Ushbu uslubiy nizomda qo‘llanilgan atamalar faqatgina statistika organlari tomonidan statistik maqsadlar uchun ishlatiladi.

2-bob. Kuzatuv instrumentariyasi

4. 4-narx (xarid) “Sanoat korxonasining xarid qilingan moddiy resurslari o‘rtacha narxlari to‘g‘risida hisobot” shakli asosida olingan ma’lumotlar sanoat korxonalari tomonidan xarid qilingan moddiy resurslar o‘rtacha narxlari kuzatuv va indeksini hisoblash uchun birlamchi axborot bazasi bo‘lib hisoblanadi.

5. Zarur hollarda, statistika kuzatuvlari va hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun o‘rnatilgan tartibda boshqa hujjatlar va savolnomalardan foydalanish mumkin.

3-bob. Qamrov va tasniflash tizimi

6. Xarid qilingan moddiy resurslar narxlari indeksi qamrovi Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha umumdavlat tasniflagichi (IFUT-2 tah.) bo‘yicha B “Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash”, C “Ishlab chiqaradigan sanoat”, D “Elektr,

gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash”, E “Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish” guruhlarini faoliyatiga taalluqli sanoat korxonalari tomonidan xarid qilingan moddiy resurslar narxlari o‘zgarishini hisobga oladi.

7. Resurslar darajasida O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichi (MST)dan foydalaniladi.

8. Geografik qamrov doirasida xarid qilingan moddiy resurslar narxlari indeksini shakllantirish uchun mamlakatning barcha hududlaridagi tashkilotlar kuzatiladi.

4-bob. Sanoat korxonalari tomonidan xarid qilingan moddiy resurslar narxlari indeksi shakllanishining asosiy bosqichlari

9. Xarid qilingan moddiy resurslar narxlari indeksini shakllanishi quyidagi bosqichlardan iborat:

- tayanch korxonalar (tashkilotlar) tanlovi;
- moddiy resurslarning asosiy guruhlarini tanlovi;
- narxlarni ro‘yxatga olish va narx ma‘lumotlarini yig‘ish tartibini belgilash;
- turli darajada xarid qilingan resurslar agregatlarining narx indekslarini hisoblash uchun o‘lchash (vazn) tizimini shakllantirish;
- hisoblash formulasini tanlash va indekslarni shakllantirish.

1-§. Tayanch korxonalar(tashkilotlar) tanlovi

10. Xarid qilingan moddiy resurslar o‘rtacha narxlari o‘zgarishi kuzatuvini statistika organlari tomonidan ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshiruvchi yirik sanoat korxonalarining tanlanma to‘plami bo‘yicha amalga oshiriladi.

11. Tanlanma to‘plam maqsadli tanlab olish usulida shakllantiriladi. Ro‘yxatga mazkur faoliyat turi bo‘yicha moddiy resurslar iste‘mol tizimi hamda hajmini tavsiflovchi aniq turdagi resurslar guruhining muntazam haridini amalga oshiruvchi yetakchi korxonalar kiritiladi.

12. Xarid qilingan moddiy resurslar o‘rtacha narxlari kuzatuvini bir vaqtning o‘zida tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchilar narxlari ro‘yxatga olinadigan korxonalarda tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir.

13. Tanlanmaning maqbul hajmiga statistika kuzatuv uchun belgilangan mahsulotlar asosiy guruhlarini imkon qadar maksimal darajada qamrab olgan tayanch ob'ektlarni tanlash orqali erishiladi.

14. Reprezentativlikni ta'minlash maqsadida tayanch korxonalar (tashkilotlar) tanlovi yangi birliklarning qo'shilishi va ulardagi chiqarilgan birliklar o'rniga yangilarini kiritilishini inobatga olgan holda yilda bir marotaba (rejaga asosan yil boshida) aktualizatsiya qilinadi.

2-§. Moddiy resurs guruhlari va turlari tanlovi

15. Sanoat ishlab-chiqarish maqsadlarida xarid qilingan mahsulotlar o'rtacha narxlarini ro'yxatga olish alohida turlar va moddiy resurslar guruhlari ro'yxatiga muvofiq amalga oshiriladi.

16. Tanlab olingan moddiy resurslarning guruhlar, sinflar, kichik sinflar va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha narxlar dinamikasini tavsiflash uchun yetarli darajada vakilliligi narxlarni ro'yxatga olish uchun turlarni tanlab olishning asosiy tamoyili hisoblanadi.

17. Bir martalik kuzatuvlar ma'lumotlari bo'yicha o'tkazilgan moddiy xarajatlar tuzilmasi tahliliga asosan, sanoat ishlab chiqarish faoliyatining har bir turida iste'moli bo'yicha muhim ahamiyatga ega bo'lgan resurslarning yirik guruhlari tanlab olinadi.

18. Tanlab olingan resurslarning qiymati hajmi har bir faoliyat turi bo'yicha umumiy xarid qilingan moddiy resurslar umumiy hajmining 60 % dan kam bo'lmagan qismini qamrab olishi kerak. Shu bilan birga, yirik resurs guruhlari tanlanmasini shakllantirish va ularning representativligini baholash kuzatuvlarning oxirgi mavjud ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi.

19. Faoliyat turlari bo'yicha moddiy xarajatlar kuzatuvlari va tayanch davri orasidagi davriylik 3 yildan ortiq vaqtni tashkil etishini inobatga olsa, alohida faoliyat turlari bo'yicha resurslar qamrovi katta yoki kichik tomonga farqlanishi mumkin.

20. Agarda faoliyat turlari bo'yicha moddiy xarajatlar kuzatuvlari va tayanch davri orasidagi farq 3 yildan ortiqni tashkil etsa, u holda resurslar guruhi tanlovi muhimligi holatini saqlab qolish maqsadida resurslar guruhi tanlovi representativligini to'g'rilash va ta'minlash uchun har yili yaqin bo'lgan tayanch davrdagi resurslar jadvali ma'lumotlari tahlil qilinadi.

21. Xaridlar tizimidagi assortimentlar siljishi, shuningdek, resurs yetkazib beruvchilar yoki vositachilarning o'zgarishi iqtisodiy nuqtai-nazardan narxlar darajasiga ta'sir etmasligi kerak. Bu vaqtda ulgurji bozorda raqobatchi korxonalarning mavjud bo'lmagan holatlaridagi narxlar o'zgarishini moddiy xarajatlarning o'zgarishi omili sifatida ko'rib chiqish mumkin. Bundan tashqari xarid resurslari beqarorligi natijasida resurslar guruhining bo'linishi davrlar orasidagi narx ma'lumotlarini o'zaro taqqoslanishini ta'minlay olmaydi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar va iste'mol narxlarining xarid narxlaridan farqi shundaki, ularda aniq turdagi tovarlar to'plamining o'zgarmas to'plami narxlarini kuzatiladi. Xarid narxlarini kuzatuvda esa guruhlar ichidagi assortiment siljishlarini inobatga olgan holda yirik resurs guruhlarining narxlarini ro'yxatga olinadi.

22. Har bir faoliyat turi bo'yicha kuzatuvga kiritilgan material turlari doimiy ravishda xarid qilinish maqsadga muvofiq bo'ladi.

23. Kuzatuv uchun tanlab olingan guruhlar o'z tarkibiga joriy iste'molda foydalaniladigan yoqilg'i, energiya va asosiy tizimni shakllantiruvchi xomashyo turlari, materiallar, butlovchi qismlarni oladi.

24. Texnik jihatdan qayta jihozlanish va zamonaviylashtirish maqsadida xarid qilingan uskunalar va qurilish materiallari narxlarini kuzatuvga olinmaydi.

25. O'rtacha xarid narxlarini kuzatuvga resurslar guruhlarini tanlab olishda ishlab chiqarish narxlarini ro'yxatga olinadigan tovarlar guruhi bilan o'zaro bog'lash amalga oshiriladi. Bu esa xarid narxlarini dinamikasiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish imkonini beradi (ishlab chiqarish inflyatsiyasi, tashish narxlarining o'sishi va boshqalar).

3-§. Narxlarini ro'yxatga olish va narx ma'lumotlarini yig'ish tartibi

26. Kuzatuvga tayyorgarlik ko'rish jarayonida statistika organlari tayanch korxonalar bilan o'zaro kelishgan holda hisobotni korxonaning qaysi tarkibiy qismi qaysi birlamchi hujjatlar asosida qanday mahsulotlar bo'yicha shakllantirishini, kuzatuvning maqsad va vazifalarini, alohida turdagi resurslar narxlarini ro'yxatga olishning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashtirib olishlari kerak.

27. O'rtacha narxlarini ro'yxatga olish uchun buxgalteriya hisob-kitoblari ma'lumotlari asos bo'lib xizmat qiladi (to'lov hujjatlari – hisob varaqalar, talabnomalar – topshiriqlar va boshqalar).

28. 4- narx (xarid) hisobot shaklida korxonalar tomonidan hisobot davrida ro'yxat bo'yicha ishlab chiqarish maqsadida korxona tomonidan xarid qilingan va yetkazilgan mahsulotlarning miqdori, ularning o'rtacha narxlari to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi.

29. Mahsulotlar turi aniq tavsiflarga va navlarga ajratilmagan holda taqdim etiladi. Har bir xarid qilingan resurs turlari bo'yicha ushbu resurslar yetkazib berish bo'yicha ma'lumotlar, ularni xarid qilish joyi (tarmog'i) bo'yicha guruhlashtirilgan (O'zbekiston Respublikasi, MDH davlatlari, boshqa davlatlar korxonalaridan) holda alohida satrda ko'rsatilishi kerak.

30. Muayyan moddiy resursning xarid qiymati to'g'risidagi ma'lumotlarda korxona tomonidan resurslarni sotib olish, jumladan, ta'minotchining sotish narxlari, korxonagacha yetkazib berish, tarqatish, vositachilik xarajatlari, komission to'lovlar, qo'shilgan qiymat va aksiz solig'i xarajatlari hisobga olinishi kerak.

31. Xorijiy sotuvchilardan valyuta hisobida xarid qilingan import mahsulotlar narxlari oldi-sotdi jarayoni kunidagi valyuta kursi bo'yicha so'mga nisbatan qayta hisoblab chiqiladi.

32. Transport xarajatlari o'z ichiga (yetkazib beruvchining qayd etilgan sotish narxlaridan tashqari) temir yo'l, avtomobil va boshqa transport turlari, ketish-kelish yo'nalishlaridagi vagonlarni yetkazib berish hamda tozalash, yuklab berish va tushirish ishlari, turli xildagi qo'shimcha transport xarajatlari bilan bog'liq boshqa xarajatlarni oladi.

33. Sotib olish xarajatlari savdo tashkilotlari tomonidan belgilanadigan komissiya to'lovlarini ham hisobga oladi.

34. Xarid qilingan moddiy resurslarning guruhlari bo'yicha o'rtacha narxlari korxonalarda hisobot davrida xarid qilingan ushbu guruh tarkibiga kiruvchi alohida turdagi resurslarning (markasi, o'lchami, artikuli va boshqalar) soni va qiymatidan kelib-chiqib tortilgan o'rtacha kattalikdan foydalangan holda shakllantiriladi.

35. Resurslar guruhlari o'rtacha narxlarini shakllantirishda hisob-kitoblardan resurslar guruhiga kiruvchi asosiy xarid qilingan mahsulotlarning o'rtacha narxlari darajasidan sezilarli darajada qimmat narxlarda sotib olingan resurslar chiqarib tashlanishi kerak ("ekstremal" va "bir martalik" narxlar deb ham yuritiladi).

36. Korxonada tegishli hisob-kitoblar mavjud bo'lmaganda, istisno tariqasida narxlarni aks ettirishda ushbu turdagi resurslarning asosiy sotib olingan hajm narxlarini ham ko'rsatish mumkin.

4-§. Xarid qilingan moddiy resurs turlarining o‘rtacha narxlarini hisoblash

37. Tayanch korxonalar (tashkilotlar) bo‘yicha alohida turdagi xarid qilingan moddiy resurslar narxlari kuzatuv ma’lumotlari respublika bo‘yicha o‘rtacha narxlar va ularning o‘zgarishini aniqlash imkonini beradi.

38. Mahsulot turi bo‘yicha o‘rtacha narx hisobot davrida sotib olingan mahsulot qiymatini uning miqdori bo‘yicha taqsimlanishi koeffitsiyenti sifatida hisoblanadi. Mamlakat bo‘yicha xarid qilingan mahsulot turlarining, shu jumladan sotib olish manbalarining o‘rtacha narxini aniqlash uchun ushbu turdagi mahsulotlarning miqdori va qiymati to‘g‘risidagi ma’lumotlar kuzatuvga kiritilgan faoliyatning bir turidagi tayanch korxonalari (tashkilotlari) bo‘yicha umumlashtiriladi.

39. Respublika bo‘yicha xarid qilingan moddiy resurslar guruhlarining o‘rtacha narxlarini hisoblashning shartli misoli 1-ilovada keltirilgan.

40. O‘zgaruvchan bozor sharoitlari va ishlab chiqarishning mavsumiy xususiyatlari sababli, vakil-mahsulotlar guruhi tarkibiga kiritilgan ayrim turdagi resurslar sotib olinishi vaqtinchalik xususiyatga ega bo‘lishi mumkin. Tayanch korxonada kuzatilayotgan resurs turlarining xarid narxlari to‘g‘risidagi ma’lumotlari mavjud bo‘lmagan hollarda, respublika bo‘yicha o‘rtacha narxni hisoblashda ushbu mahsulotning “shartli” miqdori, narxi va qiymati aniqlanadi.

41. Vaqtincha mavjud bo‘lmagan resurslarning “shartli” narxlarini aniqlashda quyidagi usullardan foydalaniladi:

- mahsulotning yo‘qolishidan avval qayd etilgan oxirgi narx yoki o‘rtacha narxni keyingi davr uchun ko‘chirish;
- oxirgi ro‘yxatga olish narxini hisobot davridagi o‘xshash resurs guruhi indeksiga ko‘paytirish;
- iste’mol xususiyatlari jihatidan o‘xshash (o‘rnini bosuvchi) resurslar narxlaridan foydalanish;
- boshqa iste’molchilarning o‘xshash resurslar narxlarini qo‘llash.

42. Yuqoridagi usullarning har biridan foydalanishdan avval bozor sharoitlarining shakllanishi to‘liq tahlil qilinishi kerak, jumladan:

- yo‘qolgan resurs narxining o‘zgarishsiz qolishi yoki ahamiyatsiz darajada o‘zgarishi taxmin qilinadigan vaziyatlarda, oxirgi ro‘yxatga olish narxidan foydalanish mumkin;

– o‘rtacha narxlarni hisoblashda o‘xshash (o‘rnini bosuvchi) resurslar narxlarini qo‘llashdan oldin yetishmayotgan yoki almashtirilayotgan resurslar narxlarining shakllanishini tahlil qilish lozim;

– boshqa iste‘molchilarning o‘xshash resurs narxlarini qo‘llashdan oldin korxonaning moddiy-texnik ta‘minoti shartlarini taqqoslab, korxonada xarid narxini ro‘yxatga olishni imkoni bo‘lmagan mazkur resursga nisbatan o‘rtacha narxlar xisob-kitoblari amalga oshiriladi.

43. Vaqtincha yo‘q bo‘lgan resursning “shartli” miqdori hisobot davri oldingi davrdagi darajasida yoki yo‘qolishidan oldin ushbu mahsulotning o‘rtacha choraklik miqdori bo‘yicha olinadi.

44. Yo‘qolgan resursning “shartli” qiymatini aniqlash uning “shartli” miqdorini “shartli” narxiga ko‘paytirish yo‘li bilan aniqlanadi.

45. Agar tayanch tashkilotlar mutaxassislari bilan resurslarni vaqtincha mavjud bo‘lmashligi uning ishlab chiqarilayotgan tovar xususiyatlari bilan bog‘liqligi aniqlansa (masalan, saqlash texnologiyalari muntazam resurslarni sotib olishni talab qilmasa, resursni yiliga bir necha marta sotib olish kifoya qilsa), u holda ushbu uslubiy Nizomning 41-bandiga muvofiq, resursning faqatgina “shartli” narxi hisoblanadi. Bunday holda, resursning qiymati va miqdori kelgusi davrlar uchun ma‘lum bir salmoqni tashkil etadigan yil uchun xarid narxini sun‘iy ravishda oshirib yuborishdan saqlanish uchun baholanmaydi.

5-§. Tayanch vaznlar tuzilmasini shakllantirish tartibi va o‘lchov tizimini yaratish

46. Xarid qilingan moddiy resurslar o‘rtacha narxlari indeksining iqtisodiy tarkibi salmoq vaznlarini aniqlash uchun qiymat jihatidan ularni sotib olish hajmlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi.

47. Salmoq vazn tizimlarini shakllantirish butun respublika bo‘yicha amalga oshiriladi.

48. Har bir sotib olish tarmog‘i bo‘yicha alohida turdagi resurslarning xarid narxlari indekslarini hisoblash uchun salmoq vaznlarini aniqlashtirishda, kuzatuvga kiritilgan asosiy korxonalar doirasida sotib olish tarmog‘i bo‘yicha aniq turdagi moddiy resurslarning xarid qiymatidan foydalaniladi.

49. Salmoq vaznlarini aniqlashda xarid qiymati hajmlarining to‘plangan usulidan foydalaniladi, ya‘ni, o‘tgan hisobot davridagi barcha xarid tarmoqlari bo‘yicha yil davomidagi sotib olingan resurslarning har bir turi kesimida barcha ma‘lumotlar jamlanadi. Shu tarzda qabul qilingan qiymat hajmlari ma‘lumotlari asosida barcha xarid tarmoqlari bo‘yicha har bir sotib olingan resurslarning o‘rtacha narxlari indekslarini hisoblash maqsadida birlamchi salmoq vaznlar tizimi shakllantiriladi.

50. Birlamchi salmoq vaznlar quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$W_d = \frac{St_i}{\sum_{i=1}^n St_i},$$

bunda:

- W_d - narx indekslarini hisoblash uchun birlamchi tayanch salmoq vaznlar;
- St_i - o'tgan yilga nisbatan xarid tarmog'i bo'yicha tayanch tashkilotning i -resurs qiymati;
- n - resurs xarid qiluvchi tayanch korxonalar soni

51. Tayanch davrning salmoq vazni va indekslariga mos kelishi shartlariga rioya qilish maqsadida, xarid qilingan resurslarning o'rtacha yillik qiymatini o'tgan yilga nisbatan tayanch davrning IV choragidagi narxlar darajasiga keltirish uchun aktuallashtirilgan tuzatish koeffitsiyentidan foydalangan holda birlamchi salmoq vaznlarga tuzatish kiritiladi.

52. Aktuallashtirishning tuzatish koeffitsiyenti quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$K_a = \frac{LTR_{IV,G-1}}{\sum_{n=I}^{IV} (LTR_{n,G-1}) / 4}$$

bunda:

- K_a – aktuallashtirishning tuzatish koeffitsiyenti
- LTR_{IV} – tayanch yil IV choragiga nisbatan IV chorakdagi mos ravishda resurslar, guruhlar, bo'limlar, yetkazib berish tarmog'i va umumiy sanoat faoliyati bo'yicha narx indeksi.¹;
- LTR_n – tayanch yil IV choragiga nisbatan n chorakdagi mos ravishda resurslar, guruhlar, bo'limlar, yetkazib berish tarmog'i va umumiy sanoat faoliyati bo'yicha narx indeksi.
- n – chorak raqami;
- $G-1$ – indekslar hisoblanadigan va salmoq vaznlardan foydalaniladigan yilning o'tgan yilga nisbati.

¹ Narx indekslarini hisoblash uslubiyoti 6- §da keltirib o'tilgan ("Xarid qilingan moddiy resurs turlari bo'yicha individual va umumiy o'rtacha narxlar indeksini hisoblash").

53. Salmoq vazn quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$W = W_d \times K_a$$

54. Xarid narxlari kuzatuv doirasiga birinchi marotaba kiritilayotgan tashkilotlar hisobot yilining boshida hududiy statistika organlariga o'lchash tizimini shakllantirish uchun kuzatuv maqsadida tanlab olingan har bir resursning yetkazib berish tarmoqlari kesimida o'tgan yildagi xarid narxlari ma'lumotlarini taqdim etishlari kerak.

55. Turli sanoat faoliyatidagi narxlar o'zgarishlarining turli darajalari va dinamikalarini bir-biridan farqlanishini inobatga olib, xarid narxlari indeksi o'lchovi bazasini yangilash har yili amalga oshiriladi. Inflyatsiya sur'atlarining barqaror minimal darajagacha pasayishi holatlarida o'lchash tizimini yangilash besh yilda bir marotaba amalga oshirilishi mumkin.

6-§. Xarid qilingan moddiy resurs turlari bo'yicha individual va umumiy o'rtacha narxlar indeksini hisoblash

56. Xarid qilingan moddiy resurslar turlari va salmoq vaznlar tizimi ma'lumotlari asosida respublika bo'yicha alohida turdagi xarid qilingan moddiy resurslarning (sotib olish tarmoqlari bo'ylab) o'rtacha narxlari indeksi hisoblanadi.

57. Alohida korxonalarning muayyan yetkazib berish tarmoqlari bo'yicha har bir turdagi moddiy resurslarning o'rtacha xarid narxlarining individual indekslari har bir turdagi resurslarning joriy chorakdagi o'rtacha xarid narxini o'tgan chorakdagi o'rtacha narxlarga nisbati sifatida hisoblanadi:

$$STR_{i(q)} = \frac{\overline{P_{i(q)}}}{P_{i(q-1)}} \times 100\%,$$

bunda:

$STR_{i(q)}$ - chorakdagi o'tgan chorakka nisbatan individual narx indeksi;

$\overline{P_i}$ - i -resursning o'rtacha narxi;

q - joriy chorak;

$q-1$ - o'tgan chorak.

58. Umumlashgan narx indekslarini shakllantirish tayanch davrining salmoq vaznlari tizimidan foydalanilgan holda modifikatsiyalangan Laspeyres formulasi asosida amalga oshiriladi. Modifikatsiya shundan iboratki, har bir davrda tayanch salmoq vaznlar narx indeksining so'nggi qiymatiga ko'paytiriladi.

59. Hisob-kitoblar quyidagi algoritm asosida amalga oshiriladi:

$$1. LTR_{q,i} = \prod_{n=1}^q STR_{n,i} ,$$

$$2. V_{q,i} = W_i \times \prod_{n=1}^q STR_{n,i} ,$$

$$3. LTR_{q,j} = \frac{\sum_{i=1}^g V_{q,i}}{\sum_{i=1}^g W_i} = \frac{V_{q,j}}{W_j} ,$$

$$4. STR_{q,j} = \frac{LTR_{q,j}}{LTR_{q-1,j}} ,$$

bunda:

$LTR_{q,i}$ – i -resursi bo'yicha tayanch yilning IV choragiga nisbatan joriy q chorakdagi uzoq muddatli narx indeksi;

STR_i – i -resursi bo'yicha o'tgan chorakka nisbatan hisobot choragidagi narx indeksi;

$STR_{q,j}$ – j -resurs guruhi (kichik guruhi)ning o'tgan chorakka nisbatan $(q-1)$ joriy q chorakdagi narx indeksi (j -sinf, guruh, bo'lim, yetkazib berish kanali bo'yicha);

$LTR_{q,j}$ – j -guruhi (kichik guruhi)ning tayanch davr dekabr oyiga nisbatan q joriy chorakdagi uzoq muddatli narx indeksi (j -sinf, guruh, bo'lim, yetkazib berish kanali bo'yicha)

$V_{q,i}$ – joriy q chorakdagi i -resursning qiymat salmoq vazni;

$V_{q,j}$ – joriy q chorakdagi kichik guruhlarining salmoq vazni (j -sinf, guruh, bo'lim, yetkazib berish kanali bo'yicha) ;

W_i – i -resurs salmoq vazni;

W_j – kichik guruhlar bo'yicha salmoq vazn (j -sinf, guruh, bo'lim, yetkazib berish kanali bo'yicha);

- n – chorak raqami;
 g – j -kichik guruhiga kiruvchi pozitsiyalar soni (sinf, guruh, bo‘lim).

60. Har chorakda avvalgi chorakga nisbatan narx indeksleri hisoblanishidan tashqari, o‘tgan yilning IV choragiga, o‘tgan yilning mos choragiga hamda har chorakda yil boshidan o‘tgan yilning mos davriga nisbatan narx indeksleri hisoblanadi.

Mazkur indekslarni hisoblashda quyidagi formulalardan foydalaniladi:

joriy chorakda o‘tgan yilning IV choragiga nisbatan:

$$LTR_{2,q} = \prod_{n=1}^q STR_n ,$$

bunda:

$LTR_{2,q}$ – o‘tgan yil IV choragiga nisbatan i -resursi, j -kichik sinfi (sinf, guruhi, bo‘limi, xarid kanali) bo‘yicha, umumiy sanoat faoliyati bo‘yicha joriy q chorakdagi narxlar indeksi;

STR – o‘tgan chorakga nisbatan i -resursi, j -kichik sinfi (sinf, guruhi, bo‘limi, xarid kanali), umumiy sanoat faoliyati bo‘yicha n chorak uchun qisqa muddatli narx indeksi;

q – joriy chorak;

n – chorak tartib raqami.

joriy chorakda o‘tgan yilning mos choragiga nisbatan:

$$LTR_{3,q} = \frac{LTR_{q,G}}{LTR_{q,G-1}} ,$$

bunda:

$LTR_{3,q}$ – o‘tgan yilning mos choragiga nisbatan i -resursi, j -kichik sinfi (sinf, guruhi, bo‘limi, xarid kanali), umumiy sanoat faoliyati bo‘yicha joriy q chorakdagi narx indeksi;

LTR_q – tayanch yilning IV choragiga nisbatan i -resursi, j -kichik sinfi (sinf, guruhi, bo‘limi, xarid kanali), umumiy sanoat faoliyati bo‘yicha joriy q chorakdagi narx indeksi;

q – joriy chorak;

G – joriy yil;

$G-1$ – o‘tgan yil.

yil boshidan har chorakda o‘tgan yilning mos davriga nisbatan:

$$LTR_{4,q} = \frac{\sum_{n=1}^q LTR_{n,G}}{\sum_{n=1}^q LTR_{n,G-1}},$$

bunda:

$LTR_{4,t}$ – o‘tgan yilning mos davriga nisbatan yanvar oyidan boshlab joriy q chorakning so‘nggi oyigacha bo‘lgan narxlar indeksi (resurslar, guruh yoki kichik guruhlar, xarid kanali, barcha umumiy sanoat faoliyati bo‘yicha);

LTR_n – tayanch yilning IV choragiga nisbatan n chorak uchun narx indeksi (resurslar, guruh yoki kichik guruhlar, xarid kanali, barcha umumiy sanoat faoliyati bo‘yicha);

q – joriy chorak;

G – joriy yil;

$G-1$ – o‘tgan yil.

hisobot yili joriy choragining o‘tgan yilning o‘rtacha yillik narxlariga nisbatan narx indeksi (ushbu formula umumlashtirishning barcha darajalari uchun qo‘llaniladi):

$$LTR_{5,q} = \frac{LTR_{q,G}}{\sum_{n=1}^4 LTR_{n,G-1}}$$

bu yerda:

$LTR_{5,q}$ - hisobot yili (G) joriy q choragidagi o‘tgan yilning ($G-1$) o‘rtacha yillik narxlariga narx indeksi;

LTR_n - hisobot yili (G) n choragidagi tayanch yil IV choragiga nisbatan uzoq muddatli indeks;

G - hisobot yili;

$G-1$ - o‘tgan yil.

hisobot yili joriy choragining hisobot yilning o‘rtacha yillik narxlariga nisbatan narx indeksi (ushbu formula umumlashtirishning barcha darajalari uchun qo‘llaniladi):

$$LTR_{6,q} = \frac{LTR_{q,G}}{\sum_{n=1}^4 LTR_{n,G}}$$

- $LTR_{6,q}$ - hisobot yili (G) joriy q choragidagi hisobot yili (G) oʻrtacha yillik narxlariga nisbatan narx indeksi
- LTR_n - hisobot yili (G) n choragidagi tayanch yil IV choragiga nisbatan uzoq muddatli indeks;
- G - hisobot yili;

5-bob. Yakuniy qoidalar

61. Iqtisodiy faoliyat turlari va tovarlar turlari boʻyicha xarid qilingan moddiy resurslar narxlari indeksini hisoblash Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan respublika boʻyicha amalga oshiriladi.

62. Sanoat korxonalari tomonidan xarid qilingan moddiy resurslar sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar narxlari maʼlumotlari asosida umumiy hisobda mamlakat iqtisodiyotidagi joriy holatni baholashda va kelgusida iqtisodiy prognozlashtirish jarayonlarida foydalanish mumkin

63. Xarid qilish narxlari koʻrsatkichlari, shuningdek, bozor sharoitlarini oʻrganishva narx oʻzgarishlari uning holatiga taʼsirini, xalqaro statistika amaliyotiga muvofiq eng muhim makroiqtisodiy koʻrsatkichlarning xalqaro darajada taqqoslanishini taʼminlash, xarid narxlari indekslarini ishlab chiqaruvchilar narxlari indekslari bilan solishtirish yoʻli bilan sotib olish narxlarini oʻzgartirish, transpot xarajatlari, savdo tashkilotlarining ustama haqlari va boshqa vaziyatlarda xarid narxlari oʻzgarishiga taʼsir qiluvchi omillarni tahlil qilish kabi masalalarni hal qilishda ham qoʻllanilishi mumkin

64. Nashrlarda va rasmiy hisobotlarda tarif indekslari maʼlumotlari verguldan soʻng bitta oʻnlik belgi bilan joylashtiriladi.

**O'zbekiston Respublikasi bo'yicha xarid qilingan moddiy resurslar
guruhlarining o'rtacha narxlarini hisoblashdagi
shartli misollar**

№	Sohalar nomi va moddiy resurs turlari	O'lchov birligi	Xarid qilingan mahsulotlar miqdori	Xarid qilingan mahsulotlar qiymati, ming,so'm	Mahsulot birligi narxi, so'm
1	2	3	4	5 =ust.4*ust.6/1000	6
Faoliyat turi					
	Chakana savdo uchun qadoqlanmagan paxtadan yigirilgan bir qavatli ip	ton-na	8,6 (bet.1+bet.2+bet.3)	561 650 (bet.1+bet.2+bet.3)	65 308 140 (ust.5/ust.4*1000)
1	a) O'zbekiston Respublikasining korxona va tashkilotlaridan	"-"	4,0	241 000	60 250 000
2	b) MDH mamlaktlarining korxona va tashkilotlaridan	"-"	3,5	182 450	52 128 571
3	v) boshqa mamlaktlarning korxona va tashkilotlaridan	"-"	1,1	138 200	125 636 364
	Korxona 1	"-"	1,8 (bet.4+bet.5+bet.6)	402 700 (bet.4+bet.5+bet.6)	223 722 222 (ust.5/ust.4*1000)
4	a) O'zbekiston Respublikasining korxona va tashkilotlaridan	"-"	1,0	185 000	18 500 000
5	b) MDH mamlaktlarining korxona va tashkilotlaridan	"-"	0,5	111 500	22 300 000
6	v) boshqa mamlaktlarning korxona va tashkilotlaridan	"-"	0,3	106 200	35 400 000
	Korxona 2	"-"	3,8 (bet.7+bet.8+bet.9)	92 350 (bet.7+bet.8+bet.9)	24 302 632 (ust.5/ust.4*1000)
7	a) O'zbekiston Respublikasining korxona va tashkilotlaridan	"-"	2	39 000	19 500 000
8	b) MDH mamlaktlarining korxona va tashkilotlaridan	"-"	1	21350	21 350 000
9	v) boshqa mamlaktlarning korxona va tashkilotlaridan	"-"	0,8	32000	40 000 000
	Korxona 3	"-"	3 (bet.10+bet.11)	66 600 (bet.10+ bet.11)	22 200 000 (ust.5/ust.4*1000)
10	a) O'zbekiston Respublikasining korxona va tashkilotlaridan	"-"	1	17 000	17 000 000
11	b) MDH mamlaktlarining korxona va tashkilotlaridan	"-"	2	49 600	24 800 000
12	v) boshqa mamlaktlarning korxona va tashkilotlaridan	"-"	-	-	-